

# TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqa boshlagan

№ 9 (66342)  
2002 yil 1 mart, juma

Sotuvda erkin narxda

## Aziz bolalar!

2002 - «Qariyalarni qadrlash yili»da o'z bobo va momolari haqida mehr bilan kim ham gapirishni xohlamaydi deysiz? Qolaversa yurtimizda oqil farzandlar o'stirib, el xizmatiga kamarbasta qilgan, endilikda qarilik gashtini surib, odamlar orasida izzatini bilgan qariyalarimiz bisyor. Sizlar shunday qo'sha-qariganlarning suratlarini bizga yuborib, surat ostiga tagso'z ham yozing. Eng yaxshi she'riy yoki nasriy yo'lda yozilgan tagso'zlar gazetamiz sahifalarida e'lon qilinadi. Sizning yozganlaringizni o'qiganlar zavqlanib, qo'sha qariganlarga havas bilan boqishsa, bu voqea gazetada surati chiqqan momo va bobolaringiz uchun ham olamjahon shodlik keltiradi.

Kattalarni qadrlashga, dil izhoringizni aytib, ularga mehr ko'rsatishga shoshiling.

Boshimdan tog' qulamasin, ota-onam omon bo'lsin,  
Taqdir qahr tilamasin, ota-onam omon bo'lsin.  
Soyabonim ular mening, posibonim ham ular,  
Sahovatli yerim mening, osimonim ham ular.

Axir jon- jongadir, bejon kimga kuyar, azizlar,  
Qo'yib bersang bu ko'zingni u ko'z o'yar, azizlar.  
Jigarlarni bir- biriga bog'lab turgan ota- onam,  
Ota- onam bilan bag'rim to'lug', yorug' uyim- xonam!

Sulaymon o'lsa, dev boshga chiqib ketar, deydilar,  
Tog'oraga tog'oracha sig'ib ketar, deydilar.  
Bardoshin tog' qilib bizni olgan issiq bag'riga,  
Ota-onam o'lsa kimlar bizning g'amni yeydilar?

Ota-onam omon bo'lsin, ota-onam omon bo'lsin,  
Baxtimizga hamisha tinch, totuv, xurram zamon bo'lsin.  
Aslida yurt totuvligi xonadondan boshlangay,  
Totuvlikni saqlab turgan kattalar sog'-omon bo'lsin!

QARIYALARNI QADRLASH YILI - O'ZBOKISTON



## Prezident asalarini o'rganamiz

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

**MILLIY ISTIQLOL G'OYASI:**  
ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMIYILLAR

Milliy mafkura xalqning maqsad-muddolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir.

Istiqlol mafkurasini ko'pmillatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi.

Milliy g'oya va istiqloq mafkurasini haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi halihanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi.

Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'alarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiyligni hayot mezoniga aylantirish — milliy istiqloq mafkurasining bosh maqsadidir.

(Dovomi bor)

## SHOIRA TUG'ILGAN KUN



Aziz bolajonlar, sevimli shoiramiz Zulfiyani hammangiz yaxshi bilasiz. Mirtemir bobomiz ta'riflagandek, jahongashta, yetuk va asl shoiramiz agar hayot bo'lganlarida bugun 81 bahorni qarshilagan bo'lardilar. Eng muhimi, yuzlab, minglab she'riyat shaydolari - «Zulfiyaning qizlari»ga ustozlik qilardilar...

«She'rlar minglarcha kishilar o'z qalbi va dili bilan his etib, o'zlariniki qilib olgandagina poeziyaga aylanadi» deb yozgan

Zulfiyaning har bir she'ri yuraklarga yaqin, tillardan dillarga ko'chib, aziz va ardoqli bo'lib ketgan. Uning gulshanidan bo'y olib, Zulfiyadek bo'lishni orzulagan qizlarimizning ko'pligi ko'ngillarga taskin beradi.

## Zulfiya izdoshlari ijodidan

### SIZ HECH KIMGA O'XSHAMAYSIZ, ONAJON!

Siz hech kimga o'xshamaysiz, onajon,  
Tilim ojiz, ta'rifingiz ming doston,  
Munavvardir o'zingiz-la keng jahon,  
Siz hech kimga o'xshamaysiz, onajon!

Topinsam-da oz, siz juda bebaho,  
Poy-gardingiz ko'zlarimga to'tiyo,  
Sizdek buyuk, mehri daryo ko'p, ammo,  
Siz hech kimga o'xshamaysiz, onajon!

Bo'lolmaydi hech bir inson onamday,  
Siymolari go'yo quyosh xonamda,  
Tengsiz malak, yagonasiz olamda,  
Siz hech kimga o'xshamaysiz, onajon!

Ruxsora TO'LABOYEVA,  
«Zulfiya» mukofoti  
sovrindori.



**«DANAK» OPERATSIYASI**

Bir kuni o'quvchilarim o'rik, shaftoli, olcha danaklaridan yig'ib, yog' qilishni niyatida ekanliklarini aytib qolishdi. Ular har qaysi danak mag'zidan 5 kilogrammdan olib kelishni boshlashdi. Bu tashabbusning boisi paxta yog'i o'rnida danak yog'i foydali va dorivorligidadir. O'zbekiston radiosi orqali 18 yanvar kuni tongda bog'bon boboning danak haqidagi maslahatlarini tingladim. Ular vaylutaga keltirilayotgan «oblepixovaya» yog'idan shaftoli, o'rik, qovun mag'zidan olingan yog' ming barobar afzalligini ta'kidladilar. Shu sababli ham o'quvchilarim 170 kg. mag'iz yig'ib, juvozdan o'tkazib, 150 kg. yog' olmoqchilar. Har kilogramm yog'ni 1250 so'mdan sotishsa 187500 so'm bo'larkan. Bu mablag'ga sinf xonalarini ta'mirlash uchun bo'yoq va ohaklar olishmoqchi. Ularning iqtisodiy yechimlariga tasannolar aytgim keldi.

*Bekpo'lat ABDUVOHIDOV,  
Samarqand viloyati, Poyariq tumanidagi  
35-o'rta maktabning 7- «A» sinf rahbari.*

**XALQLAR HEGIRMONI****MAKTAB SAHNASI UCHUN**

Hurmatli tahririyat xodimlari. Maktabimiz o'quvchilari o'zlari sevgan «Tong yulduzi» gazetasiga bajonu dil obuna bo'lishib, har bir sonini intizorlik bilan kutib, qiziqib o'qiydilar.

1999 yil 9 fevral sonida «Mustaqil ona yurt mangu bo'l obod», 2000 yil 23 mart sonida «Navro'z guldastasi» nomli maktab sahnasi uchun ssenariylarimni chop etganinglar uchun kech bo'lsa ham chuqur minnatdorchiligimni bildiraman. Jamoangizga ijodiy parvozlar tilab, «Savodxonlik bayrami» uchun ssenariy yuboryapman. Lozim topsangiz, chop etarsizlar.

*Anvarjon XO'JAYEV,  
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi  
16-o'rta maktab direktori,  
Xalq ta'limi a'lochisi.*

**QORDAY OPPOQ SOCHINGIZ...**

Buvijonim bu yil 80 bahorni qarshilaydilar. Ularga mahalla-ko'ydagilarning ham havasi keladi. Chunki 49 nevara, 59 chevarasi bor badavlat onaxon mening buvimlar-da. Ularning ismlari Buvsora Nazimova. Men tug'ilgan kunlariga juda ajoyib sovg'a tayyorladim. Sinf rahbarimiz Nilufar opa e'lon qilgan «Kundalik ozodaligi» va «A'lochilar» ko'rigida birinchi o'rin sohibi bo'ldim. Ustozim A.Burxonovdan nota sirlarini o'rganib, chiroyli qo'shiq o'rgandim. Bularning hammasini buvijonimga hadya qildim.

Ukam Oybek ham mendan o'rnak olib shunday qilmoqchi.

*Nigora  
BO'RIBOYEVA,  
Jizzax viloyati,  
Paxtakor tumanidagi  
1-o'rta maktabning  
5- «V» sinf  
o'quvchisi.*

**IKKI CHORAKDA IKKI SINIF**


Men uchun o'tgan yil juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Ikki chorak ichida ikki sinfni tamomlab, imtihonlarni a'lo baholarga topshirdim. Birinchi ustozim Zilola opa To'laganova menga o'qishni, yozishni, hattoki partada qanday o'tirishni o'rgatish bilan birga meni eng ilg'or o'quvchiga aylantirdilar. Ular doimo mening izlanishimga xayrixohlik qildilar. Shuning uchun ham hozir tengdoshlarimdan bir sinf yuqorida o'qiyapman. Maktabimizga O'zbekiston qahramoni Mavluda opa Ismatova rahbarlik qiladilar. Ular a'lochi va zukko o'quvchilarni «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlaydilar. Men har vaqt ilm o'rganishga va uning sohibi bo'lishga harakat qilaman. Ulg'ayganimda ular kabi ustoz bo'lib, o'z bilimlarimni yosh avlodga o'rgatmoqchiman.

*Shirin ABDULLAYEVA,  
Toshkent shahridagi 273-litsey-maktabning  
3-sinf o'quvchisi.*

**QO'LNING QO'LGA BERING**

Maktabimizda «Do'stlik» jamoasi tashkil etilgan bo'lib, uning maqsadi yordamga muhtoj o'quvchilarga yordam qo'lini cho'zish hamda boshqa maktab o'quvchilari bilan do'stlik aloqalari o'rnatishdan iboratdir. Bu jamoaga yosh o'qituvchi Malohat Fozilova boshchilik qilmoqda. 8-9 sinf o'quvchilari jamoaning asosini tashkil etadi. Maktabda qanday tadbir, ko'rik, bellashuv bo'lmasin, albatta «Do'stlik» jamoasi ishtirok etadi. Undan tashqari Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va boshqa viloyatlardagi maktablar bilan aloqa bog'lab turishadi. Agar siz ham biz bilan do'stlashmoqchi bo'lsangiz, albatta xat yozing.

*Iroda MIRSOATOVA,  
Toshkent viloyati, Pskent tumanidagi  
42-umum o'rta ta'lim  
maktabining o'qituvchisi.*



Kitob - aql chirog'i. Biz qancha ko'p kitob o'qisak, shunchalar aqlimiz, bilimimiz charxlanadi. Kitob o'qigan insonlar qo'lidan yomonlik, qabihlik kelmaydi. Kitob bizni to'g'ri yo'lga boshlaydi, bizni yetuk inson qilib tarbiyalaydi.

Oftob bizga beminnat nurini sochadi. Kitob ham ziyo ulashadi. Shunday ekan, biz kitobni oftobga qiyoslasak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yaqinda men kitobning oftob ekanligini isbotlashga urinib ko'rdim. Tajribam esa shunday bo'ldi:

Barchamizga ma'lumki, quyoshda ozon, kislorod, ultrabinafsha nurlar mavjud. Ana shularni birma-bir taqqosladim. Tabiatda atmosferaning yuqori qatlamlarida kislorodga ultrabinafsha nurlarning ta'siridan ozon hosil bo'ladi. Bu degani, inson tafakkurining yuqori qatlamida

dono fikrlar majmuasida bilim, odob-axloq paydo bo'ladi.

Kislorod - bu fikr, xayol. Ya'ni, kislorodsiz y a s h a b bo'lmaganidek, fikr, xayolsiz ham aslo yashab bo'lmaydi.


Ultrabinafsha nurlari - bu xabar, ma'lumot. Bu nurlar asosan oftobdan taralib, hayotimizni yorug' va nurafshon qilib turadi.

Kitobdan ham qiziqarli xabar va ma'lumotlar olamiz.

Ozon bizni jazirama quyosh nuridan asraydi. Odob-axloq, bilim esa bizni yomon yo'llardan saqlaydi, ezgulik sari yetaklaydi.

Aziz tengdoshlarim, fikrlaringa siz ham qo'shilasizmi?

*Durdona SULTONOVA,  
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi  
255 - maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.*

**TO'GARAKKA MARHAMAT**

Toshkent shahar bolalar va o'smirlar ijodiyot markazida «Yosh muxbirlar» to'garagi ikki yildan beri faoliyat ko'rsatib kelayapti. Bu yerda saksonga yaqin o'quvchilar o'qib o'rganish uchun keladilar. Garchi ularning yoshlari teng bo'lmasa-da, bahsmunozaralarga birdek yondoshadilar.

Darslar leksiyalar asosida o'tiladi. Shu bilan birga to'garak a'zolari teatrlarga, muzeylarga birgalashib borib turadilar. Aktyorlar, rejissyorlar, yozuvchi-yu rassomlar bilan uchrashuvlar uyushtiradilar.

Shuningdek, to'garakda «Darxon» deb nomlangan jurnal chop etiladi. Yosh muxbirlar ko'rgan, bilgan, xohlagan mavzularida maqolalar yozib, malakalarini oshiradilar.

To'garak a'zolarining orzulari yagona. Kelajakda yaxshi jurnalist bo'lish.

*Nazokat BOBOQULOVA,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi 142- maktabning  
10- «B» sinf o'quvchisi.*

**KITOB - MENING OFTOBIM**

Mahallalarda «qiy-chuv» qilib futbol o'ynayotgan bolalarni hech kuzatganmisiz? Raqib darvozasiga gol urilsa xo'p-xo'p. Urolmay qolishsa bormi? Og'zilaridan har xil gaplar chiqib ketadi. Atrofdagilarga esa umuman e'tibor berishmaydi.

Maqtanchoq ekan deb o'ylamanglaru bizning «Bo'ston» mahallamizga kelsangiz, butunlay o'zgacha manzaraning guvohi bo'lasiz. Biror o'yinga berilib o'ynayotgan bo'lsak ham, yo'ni mizdan kattaroq odam o'tib qolsa, darhol to'xtab, qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, salom beramiz.

Otaxonu onaxonlarimiz ham bizni duo qilishadi. Uyda ota-onalarimiz, mahallada esa keksalarimiz bizga odob-ahloqni o'rgatishadi. Kezi kelganda, tanbeh ham berib turishadi. Biz esa ulardan aslo xafa bo'lmaymiz.

Aksincha, o'z farzandlaridek ko'rib, nasihat qilganlari uchun minnatdor bo'lamiz.

Uzoq yillardan buyon mahallamizga boshchilik qilib kelayotgan Abdusalom aka Atametov ana shunday pirusi.

1955 yildan buyon yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib, qator rahbar



iltimos qildim:

-Dadam haqida gapiradigan bo'lsam, avvalo ularning

akaning qizlari Farida opa Atametova ota kasbini e'zozlab, maktabimizda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bo'lib faoliyat ko'rsatib kelyaptilar.

Farida opadan dadalari haqida gapirib berishlarini

kirardilar:

«Qo'yaver, hali yosh-da bular, aqllari kirib qolar. Ishonchim komil, bizning farzandlarimiz kelajakda yuzimizni yerga qaratishmaydi», deya onamizga tasalli berardilar. Otamning ish faoliyatlariga kelsak, ular ko'p yillar davomida Bo'ston mahallasini gullab yashnashiga o'z hissalarini qo'shib kelayaptilar. Shundanmi, mahallamiz ahli ularni juda hurmat qiladilar. Otamning uzoq yillik samarali mehnatlari davlatimizning nazaridan chetda qolmadi. 1998 yil «El yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlandilar...

Fursatdan foydalanib, tavallud kunlarini nishonlash arafasidagi otaxonimizni mahallamiz bolajonlari nomidan samimiy qutlaymiz!

**Mahmudjon AZIMOV,**  
**Shayxontohur**  
**tumanidagi 169 -**  
**maktabning**  
**5 - «G» sinf**  
**o'quvchisi.**

## KUTUBXONAMIZ YANADA BOYIDI

Yurtimizda Navoiyxonlik oyligi davom etayotgan ayni kunlarda maktabimizda bobomiz ruhini yod etib, ajoyib kecha uyushtirdik. Kechamizga filologiya fanlari doktori Noboy Xudoyberganov, shoirlardan Nosir Muhammadiy hamda Tursun Alilar tashrif buyurib, o'z she'rlaridan namunalari o'qib berishdi. She'riyat mulkingning sultoni bo'lmish Mir Alisher Navoiy bobomizning g'azalu ruboiylaridan yod olgan 8 - sinf o'quvchilarining chiqishlarini maroq bilan tomosha qildilar. Ayniqsa, Navoiy va Husayn Boyqaro timsolini yaratgan Sanjar Yusupov va Shuhrat Qosimovlarning ijrolariga yuqori baho berdilar.

Kecha bahona maktabimiz kutubxonasi sevimli adiblarimiz sovg'a qilgan «Saylanma», «Mehr-muhabbat yo'llarida», «Ham inson, ham tabiat», «Nasaf va kosh allomalar» nomli kitoblar bilan yanada boyidi.

**Nasiba TURDIQULOVA,**  
**Sirg'ali tumanidagi**  
**322 - maktab o'qituvchisi.**

## MAHALLAMIZ FAXRI

lavoizmlarida ham mehnat qilgan otaxonni mahallamizning yoshu qarisi birdek hurmat qiladilar. Biz bolajonlarni yaxshi ko'rishlari, dono maslahatlarini ayamasliklari, kam ( **Qadr** ) ta'minlangan oilalarning farzandlariga qilayotgan mehribonliklari boisi ham uzoq yillar ta'lim sohasida ishlaganliklaridandir.

«Ot o'rnini toy bosar» deganlaridek, Abdusalom

kamsuqum, mehnatkash, o'z kasbiga fidoiy inson ekanliklarini alohida ta'kidlab o'tmoqchi edim. Biz oilada to'rt nafar farzandimiz. Ota-onam bizni mehnatga, ilmga, yaxshi inson bo'lib yetishishga o'rgatganlar. Barcha bolalar singari biz ham sho'x va quvnoq edik. Bilib-bilmay xato ish qilib qo'ysak, onamiz bizni koyib berardilar. Shunday kezlarda dadamiz jonimizga oro

«Yangi avlod» studiyasining rahbari Sunnatilla Qo'ziyev rang-barang ko'rsatuvlar tayyorlashga bosh-qosh bo'lish bilan birga eng zamonaviy pochta xizmatlarini ham yo'lga qo'ygan ekan.

-Maqsadimiz, rejalarimiz ko'p.



Asosiysi, - deydi Sunnatilla aka, bolalar biz bilan ko'proq va tezroq bog'lana olishi, o'z ma'lumotlarini elektron pochta orqali jo'natib, bizning ham viktorina savollarimizga hozirjavoblik bilan javob qaytarishlari. To'g'ri, xat orqali ham bog'lansa bo'ladi. Biroq, xatda javoblarni ko'chirib, o'rganib, keyin bayon qilish mumkin. Bizning elektron pochta esa, haqiqiy imtihon. Unda tayyorlanish uchun imkon ham bo'lmaydi. Bilimi bo'lsa, zukkolik bilan javob yo'llasa, ko'rsatuvga taklif qilinadi. Men bolajonlarning tashqi ko'rinishiga umuman e'tibor bermayman. Insonning ichki dunyosi go'zal bo'lsa atrofdagilarni hayratga solaveradi.

Mana, ko'pdan beri tanaffusda bo'lgan ko'rsatuvlarimiz yana tiklandi. Kunduzgi o'qish bilan

ovora bo'lib qolgan Yulduz Isayeva endilikda bir emas, ikkita ko'rsatuvga mualliflik qilmoqda. «Katta tanaffus» va «Imkon» ko'rsatuvlari



qorako'zlar uchun intellektual o'yin. «Imkon»da ishtirok etishni xohlovchilar bizning anketa savollarimizga javob qaytarishlari lozim. Bu ko'rsatuvning ham o'z pochta bor. «Sport maydonchasi»ga Kamola Odilova, «Oltin kalit»ga Umida Hamidova mualliflik va muharrirlik qiladilar. Dunyo bilan bo'ylashayotgan «Dunyo va bolalar» ko'rsatuv kengayib, endilikda bolalar uchun va o'smirlar uchun

tayyorlanmoqda. O'zingizga ma'lum, unga Noila To'laganova muallif va muharrirlik qiladi. Uning yordamchilari Saodat Qosimova va Nozima To'laganovalar ish o'rganish bilan birga viktorina

savollari tuzishda, ko'rsatuv tayyorlanish jarayonida juda faol. «Kichintoy teatri» ko'rsatuv muallifi Dildora Iskandarova bog'chalarda tayyorlangan teatrlarni efirga olib chiqadi. Uning ishi biroz murakkabroq. Chunki maktabgacha




yoshdagi bolajonlar ba'zan kamera qarshisida hayajonlanishadi, qo'rqishadi, so'zlarni yoddan chiqarishadi. Lekin Mirzo Ulug'bek tumanida

joylashgan 113- va 192- bolalar bog'chasi anchagina faol.

Yangiliklardan yana biri - tez-tez safarga chiqyapmiz. Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan sonimizni Samarqand shahri, Registon maydonida suratga tushirdik. Hilola Abdurahmonovaning «Uyga vazifa» ko'rsatuv ham o'sha yerda tayyorlandi. Ayniqsa, Siyob tumanida joylashgan Muharram Rahmonova rahbarlik qilayotgan 5-maktab faoliyati bizni hayratda qoldirdi. Bilasizmi, ishbilarmon Muharram opa o'quvchilarni hunarmandlarga shogirdlikka beribdilar. Darsdan bo'shagan bolalar o'zi tanlagan hunarni o'rganar ekan. Axir bu ajoyib tashabbus-ku. Biz ham ularning ishlaridan bahramand bo'lish

## "YANGI AVLOD"DA QANDAY YANGILIKLAR!



u c h u n hunarmandlar makoniga tashrif buyurdik. Qo'llari anchagina kelib qolgan zardo'z qizlar, duradgor bolalar,

naqqoshu o'ymakorlar bilan suhbat qurdik.

Kuni kecha Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'ldik. U yerdagi faol, bilimdon o'quvchilar bilan yaqindan tanishdik. Menga ayniqsa «Progress» til markazidagi ish faoliyat juda ma'qul bo'ldi. Bolalar xorijiy tillarni o'rganishga mukkasidan ketishgan ekan. Bu ham bejiz emas-da. Chunki eng saralari chet ellarda ta'lim olisharkan... Xullas, «Yangi avlod»da gap ko'p. Izlanishda charchamaymiz. Serg'ayrat, aqlli va zukko bolalarni tasvirga olishda, ularni o'zimizga jalb qilishda davom etaveramiz. Ha, aytgancha, elektron pochtaimizni yozib oling.

E-mail avlod@mail.tps.uz  
imkon tv@mail.tps.uz

**Muharrama**  
**PIRMATOVA.**

## SIRI FOSH ETILGAN MASXARABOZ

Xalqimizda bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, teatr binolari yangidan ta'mirlanmoqda. Yangi yil arafasida biz o'z oilamiz bilan teatrga bordik. Tomosha juda maroqli o'tdi. Qizig'i shundaki, bir ajoyib voqea bo'lib o'tdi.

Sizlarga so'zlab beraymi, aziz do'stlar? Juda kulasizlarda...

Bir payt masxaraboz sahnada quyon bilan o'yin ko'rsatmoqda edi. Stol ustiga quyanni qo'yib, ustini ro'molcha bilan yopdi. Keyin ro'molchani ko'tardi, qarabsizki, quyon yo'q. Yana quyonchani stol ustiga qo'yib, ro'molni ko'tardi, ammo quyoncha yo'q bo'lmadi. Masxaraboz o'z sirini fosh etib qo'ydi. Qanday qilib deysizmi? Bu o'yinni siri shunday ekanki, quyanni quloqlari uzunligi uchun ro'molchani yopib qulog'idan tortsa, quyon cho'ziladi. Zaldagi tomoshabinlarning hammasi chapak chalib kulib yuborishdi. Hayratda qolgan masxaraboz sahnadan chiqib ketdi.

**Gulnoza JUMABEKOVA,**  
5- «V» sinf o'quvchisi.

## KO'KDA KULGAN QUYOSHIM

Onajonim, jonajonim,  
Onajonim, mehribonim.  
Siz ko'kdagi quyoshim,  
Yaqin do'st, ham sirdoshim.

Hayotimning ma'nosi,  
A'lolarning a'losi.  
Bog'imdagi lolamsiz,  
Makkamsiz, Madinamsiz.

Sizga yetolmas hech zot,  
Sizdan go'zallik bunyod.  
So'zlaringiz doimo,  
Biz uchun oltin duo.

Onajonim, onajon,  
Baxtinga bo'ling omon.  
Xizmatda bo'laylik biz,  
Mingga kirganda ham siz.

**Yulduzxon SATTOROVA,**  
5- «G» sinf o'quvchisi.

Bir kuni hovlimizga tipratikan bolasi adashib kelib qoldi. Akam bilan ushlab olib qafasda boqmoqchi bo'ldik va bir amallab tipratikan bolasini ushlab, qafasga soldik. Men va akam uni ushlab olganimizdan juda xursand edik. Bu qafasga olma va tarvuz bo'laklarini tipratikan yeyishi uchun solib qo'ydik. Lekin u na olmaga, na tarvuzga qarardi. Bechora shunaqa tipirchilar ediki, o'zicha qafas simlarini tishlari bilan tishlab, ozodlikka chiqish uchun kurashardi. Shu tariqa kech bo'ldi. Hammamiz uxlashga kirib ketdik. Uyimiz derazasi yaqinida tipratikan solingan qafas turardi. Ko'zim uyquga ketayapti-

yu tipratikanning pitirlashi qulog'imga chalinardi. Ko'zimni ochsam, tong otibdi. Soat 7 ekan. Tura solib qafas yoniga

## TIPRATIKAN



yugurdim. Tipratikan bolasi tipirchilayverib holdan toygani edi. Unga rahmim kelib, akamni uyg'otishga shoshildim. Biz akam bilan xato ish qilib

qo'yganimizni tushunib, qafasni ochib yubordik. Tipratikan avval atrofga qarab olib, sekin qafasdan chiqdi-da, hovlimizdagi bog' tomonga pildiragancha yugurib ketdi. Shunda akamning ham, mening ham xayolimizdagi bir xil fikr erkinlik naqadar ulug' ne'mat ekanligi o'tayotgan edi.

**Xumora ERKINOVA,**  
4- «B» sinf o'quvchisi.



## SHARH O'TKAZAYAPMIZ


*Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»!*

*Maktabimiz o'quvchilari, to'garak a'zolari sening har bir soningni orziqib kutadi. Sahifangda o'z ijod namunalarini, tengdoshlari hayotidan lavha, xabarlarini o'qib xursand bo'lmoqda. Ingliz tilidan berilayotgan testlar, sportchi o'g'il-qizlar haqidagi suratli maqolalar bizga manzur bo'lmoqda. Hatto maktabni bitirgan muxlislaring ham seni o'qishmoqda. Biz har haftaning seshanba kunida «Tong yulduzi» sharhini tashkil etdik. Istardikki, Senga ko'z tegmasin. Yulduzxonning she'rlari, Durdonaxonning «Bir kuni darsda» lavhasi va yana bir qator maqolalarni Senga taqdim etmoqdami.*

### XUSHXABAR:

*1 apreldan 4-, 5- sinf o'quvchilarining hammasi «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishdi.*

**Mahmuda VALIYEVA,**  
*Yunusoboddagi 274-maktab muallimasi.*



## DO'STLIK-INSON ZIYNATI

Do'st - bu yaxshi kunida ham, yomon kunida ham birga bo'ladigan inson hisoblanadi. Ulug' bobomiz Amir Temur o'gillarida shunday deb yozilgan:

- Chin do'st ulkim, hech qachon do'stidan ranjimaydi. Ranjiganda ham uzrini qabul qiladi. Do'stlar arzimagan narsaga urish chiqarib, arazlashib qoladilar. Lekin bu odobdan emas, do'stiga sodiq, xushmuomala va unga izzat-ikromda bo'lish kerak.

Amir Temur o'gillarida: «Do'stlik imtihonda sinaladi», deb aytilgan. Bu juda ham to'g'ri. Chunki duch kelgan inson bilan do'stlashish kerakmas. Chunki sinovdan o'tmagan do'st o'zini muloyim tutib, keyin unga yomon kunlarda yordam bermasdan tashlab ketishi mumkin. Shuning uchun bobomiz Amir Temur o'gillarida: «Kimki senga do'stlik qilsa, do'stligi qadrini unutma. Unga muruvvat, ehson, izzatu-ikrom ko'rsat», deb bejiz aytilmagan.

**Dildora ODILOVA,**  
5- «B» sinf o'quvchisi.

## 2002 yil - Qariyalarni qadrlash yili

- Sendan yuksak nima bor, yulduz?

- Onalar mehri!

- Sendan keskir nima bor, olmos?

- Onalar qahri!

- Qaydin olding otashni, Quyosh?

- Ona qalbidan.

- Po'lat, qaydin senda zo'r bardosh?

- Ona sabridan.

Ha, darhaqiqat, onalarimiz mehri ham, qahri ham, sabru bardoshi ham beqiyos. Yurtimizning tinchligi, farzandlarimizning baxtiyorligi ham shundan.

Bizning Toshkent tumanidagi «Sabzavot» mahallamizda talaygina piru badavlat otaxonu onaxonlarimiz istiqomat qilishadi. 25-umumta'lim maktabimizning 9- «B» sinfida o'tkazilgan «Oilada farzand tarbiyasi» mavzusidagi

amaliy mashg'ulotimizga ana shunday nuroniy onaxonlarimizdan biri - Oynisa opa Oripovani taklif qildik.

Inson ezgu ishlar uchun tug'iladi. Berilgan umrini ilm olish, hunar o'rganish, oqil farzandlar tarbiyalash, atrofdagilarga mehr ulashish kabi ezgu ishlarga bag'ishlashi lozim. Oynisa opaning hayot yo'liga nazar tashlar ekanmiz,

ularning kamolini ko'raman deganlarida, hamma farzandlaridan ketma-ket judo bo'ldilar va hayotning bunday dahshatli sinovlariga onalik sabr-bardoshi bilan zarba berdilar...

Onaxonning bolaligi sho'ro hukumatining «kollektivlashtirish», 30-35 yillardagi qatag'on davriga to'g'ri keldi. Urush yillarining og'ir kunlari, ocharchilik dahshatlarini boshlaridan kechirganlar. Hayotning achchiq qismati 22 yoshli Oynisa opani uch farzandi bilan beva

qoldirdi. Nozik yelkalarida ro'zg'orning og'ir yukini ko'tarib, bolalariga ham ota, ham ona bo'lib yashadilar. Bor alamlarini mehnatdan olib, farzandlarini tarbiyaladilar. Endi

Onaxonning hayot yo'li haqidagi qayg'uli hikoyalarni bolalar ko'zlarida yosh bilan tinglashdi.

**Armon bilan o'tdim, demang Onajon, Hatto qushlarda ham bo'ladi armon. O'zining sabri-yu mehnati bilan, Quyoshga tenglashib boradi inson,-** deya she'rlar o'qib, ularga guldastalar tutishdi.

So'ngra onaxonni, ustozlarini, kechaga mehmon bo'lib kelgan ota-onalarini «Oilada farzand tarbiyasi» mavzusidagi bahsli munozaraga chorlashdi.

Yig'ilganlarga A. Navoiyning «Til - bebaho xazina» rivoyati asosidagi sahna ko'rinishini namoyish etdilar.

Ochiq darsimiz o'quvchilarimiz qalbida milliy qadriyatlarimiz, urfodatlarimizga sog'lom munosabatni shakllantirdi. Shuningdek, qariyalari-hayotimiz chirog'i, yo'l boshlovchi yo'lchi yulduzimiz ekanliklarini anglab yetdilar.

**S ayyora SUNNATOVA,**  
*Toshkent tumanidagi 25 - o'rta umumta'lim maktabining «milliy istiqol g'oyalari va ma'naviyat asoslari» fani o'qituvchisi.*

**Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.**  
Abu Shukur Balxiy

*emas, balki qilgan ishi muhimroq. Oliy o'quv yurtida ham shu ahvol-ilm-fanni olimning hayot yo'li, inson sifatidagi orzu-*

*o'ylari, g'am-tashvishlari emas, taraqqiyotga qanchalik hissa qo'shgani qiziqtiradi!*

*To'g'ri, barcha zamonlari barcha xalqlarda har qanday odam amalga oshirgan ishlari bilan nom qozonadi va buyuklar ham bundan mustasno emas. Lekin shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlab o'tish kerak: ilm-fan rivojiga kimdir ko'proq, kimdir kamroq hissa qo'shgan bo'lsa, bu uning iqtidoridan ham ko'ra sharoiti,*

*qisman emas, butkul yonishni, yuz foiz fidoiyligni talab etadi. Binobarin, ilm-fanni rivojlantirgan har bir kashfiyot, ixtiro, yangilik ortida tirik odam, yoniq qalb turganini aslo-aslo unutmazlik kerak.*

*Chindan ham Pifagor shunchaki chizma emas, Nyuton matematik ifoda emas, Pavlov ajoyib tajribaning o'zigina emas. Ularning har biri o'ziga xos inson, alohida taqdir, alohida xulq-atvor. Masalan, Iogann Keplerning uchta qonunini bilamiz, lekin o'zini-chi? Baxtli odammidi, baxtsizmidi? Fizika darsligidan «Torricelli bo'shlig'i» degan ibora xotiramizda qolgan. Ammo shu*

*qilgani uchun xudodan va odamlardan kechirim so'ragani rostmi? D' Alamber tashlandiq bola sifatida onasini nega kechirdi? Kimyo fanini yoqtirmagan bola kimyogar bo'lishi mumkinmi?*

*Ilmiy jurnalistika sohasida 30 yildan buyon shug'ullanar ekanman, juda ko'plab olimlarning hayoti bilan tanishuvimga to'g'ri keldi. Va ana shu jarayonda ulug' nemis kimyogari Vilgelm Ostvald «Buyuk kishilar» nomli kitobida «Buyuk kishilar ham oddiy insoniy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlardir,*

**Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.**  
Sharq naqli



# ADABIYAT ARZU-OLMAYDIK

*yo'li, izlanishlarini o'rganish muhim o'rin tutadi.*

*Masalan, maktab o'quvchilari Pifagor deganda mashhur teoremani, Nyuton deganda binoni, Pavlov deganda itlar ustida o'tkazilgan tajribalarni eslashi tabiiy hol. Chunki darsliklarda dunyo olimlari ikki og'izgina tanishtirib o'tiladi va asosiy e'tibor ular yaratgan yangilikni yoritishga qaratiladi. Kichik bir surati berilsa beriladi, bo'lmasa yo'q. Hayot yo'li bilan qisqacha tanishtirib o'tish-ku amri mahol narsa. Chunki darslik bu o'z nomi bilan darslik-da. Olimning o'zi*

*imkoniyatiga bog'liq edi. Tadqiqotlar olib borish, tajribalar o'tkazish uchun birovda zarur shart-sharoit, imkoniyat, mablag', mashg'uloilariga homiylarning diqqat-e'tibori yetarli bo'lgan, boshqa odam esa bularning baridan mahrum edi. Biroq, shohmi, gadomi bari ilm-fanning birdek fidoiysi bo'lgan. Bor iqtidori, salohiyatini hech ikkilanmasdan shu yo'lda sarflagan, butun umrini baxshida etib, har qanday mashaqqatlarga bardosh bergan. Zotan, ilm-fan kim bo'lishidan qat'iy nazar muxlislaridan*

*oddiy tajribasi bilan gidravlika ilmiga asos solgan bu odam kim edi? Tixo Brage nima uchun jizzaki bo'lgan? Mashhur norveg sayyohi Fritof Nansenga qiro'l bo'lish taklif etilganda nega rad etgan? Paleontologiya faniga poydevor qo'ygan Jori Kyuve davlat kengashi majlisini boshqara turib, nega ho'ngrab yig'lab yuborgan? Rual Amundsen o'zi yoqtirmagan odamni qutqarish uchun nega o'zini o'limga mahkum etgan? Behisob sohalarda shug'ullangan ulug' daho Leonardo da Vinchi o'limi oldidan nihoyatda kam ish*

*ularni tushunib yetish uchun hayot yo'lini o'rganish kerak», deb yozgan so'zlari nechog'li haqqoniy ekanini his etdim. Natijada dunyoga taniqli olimlar haqida yoshlarimizga hikoya qilib berish istagi tug'ildi. Darhaqiqat, nega endi adabiyot bo'yicha xrestomatiya bor-u, boshqa fanlar bo'yicha yo'q?*

*Bu ezgu niyatni avvalambor fizika, matematika, geometriya, tarix, kimyo, astronomiya, biologiya, botanika, zoologiya, geografiya, geologiya, mexanika kabi darsliklarida o'quvchilarga dastlab uchraydigan olimlardan*

*boshlash ma'qul ko'rindi. Mazkur turkum hikoyalar har bir olimning hayoti va ijodini to'liq qamrab olishga da'vo qilmaydi aslo. Lekin har bir shaxs to'g'risida o'quvchiga muayyan tasavvur bera oladi. Ajabmaski, ular maktab darsliklariga qo'shimcha ma'lumot sifatida o'quvchilarning ilm-fan tarixiga oid dunyoqarashini kengaytirsa, ularda ilm egallashga rag'bat uyg'otsa...*

Shoyad!

Rustam OBID.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Jahon madaniyati tarixida shimoliy yarim sharda joylashgan, Yevropa, Osiyo, Afrikadek uch buyuk qit'ani tutashirgan O'rta dengiz alohida o'rin tutadi. Zotan, Qadimgi Misr, Yunon va Rim madaniyatlari ana shu ulug' sohillarda vujudga keldi hamda gullab-yashnadi. Bu davlatlarning har birida olis o'tmishdagi ulkan tamuddun rivojlanib, cho'qqisiga chiqqan, vaqti-soati kelib, inqirozga yuz tutgan va o'z o'rnini kelgusi tamaddunga bo'shatib bergan. Masalan, Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'hna madaniyatlardan qolgan ilm-fan bayrog'i Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim orqali arablarga o'tib, Uyg'onish davrida yana Yevropaga qaytib keldi.

Insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan ana shu tarixiy hudud O'rta dengizning markaziy qismida, geografik xaritada etikka o'xshab turgan Apennin yarimorolining Janubiy-g'arbida joylashgan Sitsiliya oroli ham jahon madaniyati poydevorini yaratgan bir qator daholarning vatani bo'lgan. Orolning janubi-sharqiy qismidagi Sirakuza port shahriga miloddan avvalgi 734 yil asos solingan bo'lib, u milodgacha bo'lgan V asrda O'rta dengizdagi asosiy savdo markazi edi, IV asr oxiriga kelib, Dionis I va Agafon hukmronligi paytida butun Sitsiliya oroli yaxlit bir mamlakatga birlashib, Sirakuza uning poytaxti bo'lib qoldi. Bu mamlakatda dunyoda birinchi marta haqiqiy demokratik tuzum barpo

etilgan bo'lib, uning xalqi jamoaning teng huquqli a'zolari hisoblangan. Ularning har biri yerlarga ega bo'lishi bilan birga siyosiy huquqqa ham ega edi.

Dengizning qumloq sohiliga qadimgi dunyo allomasi Pifagor bilan uning shogirdlari chizgan

**RIMNI YENGGAN OLIM**  
(Arximed- miloddan avvalgi 257-212 yillar)


geometrik shakllar yuvilib ketishga ulgurmay turib, yana bir zabardast alloma

Arximed aynan shu Sirakuza shahrida tavallud topdi. Hozirgi ilm-fanda turli xil idishlar, jismlarning sirti, yuzasi va hajmini osongina hisoblab topish yo'li ana shu olimning hisoblash usuli, matematik ifodalari tufaylidir. Arximed topgan richag, og'ir yuk ko'tarish uskunolari, tosh otuvchi harbiy mashinalar va boshqa kashfiyot ixtirolar zamonaviy mexanika asoslarini tashkil etadi, ularning tayanch nuqtasi hisoblanadi. Richag qonunlarini kashf etgan va «Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yer sharini ag'darib tashlayman!» deb xitob qilgan olim ham shu edi. Rimliklar Sirakuzaga bostirib kelganida harbiy mudofaada muhandislik uslubini birinchi bo'lib yaratgan va amalda qo'llagan ham Arximed edi. Keling,

yaxshisi, bir boshdan hikoya qilaylik.

Qadimgi dunyoning bu olimi aql bovar qilmas shu qadar olis zamonda yashab o'tganki, orada kechgan 2262 yil mobaynida

uning hayoti va ilmiy faoliyatiga doir aniq ma'lumotlardan ham nomiga bog'liq afsonaviy rivoyatlar ko'payib ketgan. Binobarin, Arximedga tegishli bir qator



ishonchliroq manbalarni uzoq o'tmishda olimdan keyin unga nisbatan yaqinroq davlatlarda yashab o'tgan qadimgi dunyo tarixchilarining asarlaridan izlab topish mumkin xolos. Unchalik ko'p bo'lmagan ma'lumotlar esa quyidagicha.

Arximedning otasi matematik va astronom bo'lib, Sirakuzaning mustabid hukmdori Geronga yaqin qarindosh edi.

Otasining ta'siridanmi, Arximed bolaligidanoq sonlar olami bilan do'stlashib qoldi. Ulardagi abadiy qonunlarning qat'iy mantig'i uni bir umrga maftun etib qo'ygan edi. Bu mangu qonunlar oldida esa kishilik olamining qonunlari nihoyatda omonat va nomukammal ko'rinardi. Yosh Arximed Qadimgi dunyo «ustun»laridan biri Afrika sohilidagi Iskandariya shahriga tahsil olish uchun borganida, buni ayniqsa yaqqol his etdi.

O'sha kezlari Qadimgi Misr davlatini qo'li har yerga yetadigan qudratli Ptolemeylar sulolasi boshqarardi. Olimlar esa bir xorijiy faylasuf achchiq kinoya bilan ta'riflaganidek: «Hukmdorlarning sadaqasi hisobiga kun ko'ruvchi kitob jinnilari, homiylariga kecha-yu kunduz, hamdu-sano o'qishdan charchamaydigan laganbardorlar arzimagan masalalar ustida og'zidan ko'pik sochib, yoqa bo'g'ishadigan johillar to'dasidan iborat edi». Istezhoga to'liq bu baho bejiz emas aslo. O'rta dengizning barcha sohillaridan Iskandariyaga to'plangan va asl ma'noda o'sha davr ilm-fani hamda she'riyatining guli bo'lgan «qo'lbola olimlari shoirlar» naqadar aql bovar qilmasin, haqiqatdan ham o'z asarlari bilan Misr hukmdorlarining shon-shuhratini yoyishini o'zlarining bevosita vazifalari-yu burchlari deb bilishgan.

(Davomi keyingi sonlarda).

Tengdoshingiz Zulfizar Sodiqova 1989 yili tug'ilgan. Sobir Rahimov tumanidagi 243-maktabning 8-sinfida faqat a'lo baholarga o'qiydi. Zehni o'tkirligidan olti yasharligidanoq maktabga chiqqan. Sinf rahbari Feruza Zuhurovaning aytishlaricha, Zulfizar ikki sinfni bir yilda tamomlab, o'zidan kattalar bilan o'qirgan.

Uning chaqqonu epchilligi meni ham hayratga soldi. Ekosanga qatnab, reydlar o'tkazadi. «Yosh ekolog» klubining a'zosi. Adabiyotga mehri baland. Maqsadi esa Jahon tillari Universitetiga kirish. Menga tutqazgan bir nechta maqolalarini o'qib, haqiqatan ham adabiyot sirlaridan anchagina boxabarligiga amin bo'ldim. Ulardan birini sizning e'tiboringizga havola etmoqchimiz.



Dars tugagandan so'ng uy vazifalarni bajardim-da, xolamnikiga bordim. Ularning qizlari bilan ko'chaga o'ynagani chiqdik. Bahor bolalarga o'z ta'sirini o'tkazayotgan edi. Bolalar toza havo qo'ynida zavqlanib o'ynayotgan bir paytda atrofni yoqimsiz hid tutib ketdi. Undan nafasimiz qayta boshladi.

-Anvar, Sarvar, Dilbar tezroq uyga kiringlar,- deb qo'shni ayol bolalarini shoshirdi. Barcha uyga kirib ketdi. Ko'cha birpasda huvillab qoldi. Beg'ubor osmonni qandaydir qora bulut, bursiq tutun qamrab oldi. Men uyga kirganimda kelinoyim deraza tirqishlarini zichlab yopayotganlarini ko'rdim. Nega bunday qilayotganlarini so'rasam:

-Sassiq hidni sezmayapsanmi?- dedilar. Bizning ko'chada har kuni ahvol shu. Yaqinimizda ochilgan «SOVPLASTITAL» qo'shma korxonasidan taraladigan bu qo'lansa hiddan farzandlarimiz zaharlanmasliklari uchun kech bo'lganda ko'chaga chiqarmaymiz...

Xayolan tabiatda, Orol bo'ylarida sayr qildim. O'qituvchimiz ekologiyani

ketdim. Uyimizga kelgach, dadam yig'ib yuradigan gazetalarni ko'ra boshladim.

Orasida 80-yillarining oxirida bosilgan bir maqolani uchratib qoldim.

Maqolani mashhur tanqidchimiz Ozod Sharafuddinov yozgan ekanlar. Maqolada «Bo'stonliq»dek go'zal qishloqda katta zavod qurish joiz emasligi, unday korxonada atrof-muhitni zaharlashi ko'plab dalillar asosida isbotlab berilgan ekan. Aniqlasam, maqola sabab zavod qurilishi bekor qilingan ekan. Tabiatimizni asrasak, uning uchun kurashsak, albatta g'olib bo'lishimizga amin bo'ldim.

Mevazordek katta mahalla aholisini zaharlayotgan tutun, undan chiqayotgan qo'lansa hidning ham oldini olish choralari o'ylaydigan tashkilotlar, rahbarlar, jonkuyar adiblar topilib qolishiga shubham yo'q.

## PLASTMASSA MUHIMI, INSON HAYOTI?

asrash haqidagi ko'p hikoyalar aytib berganlar. Bu hikoyalarni uzoq vaqt eslab yotdim. Xo'sh, bu qo'shma korxonada go'yo odamlarni zaharlanishdan asrash uchun chiqindilarini kechqurun tutatib yuborsa, ular shikastlanmay qoladilarmi? Bu tutunlar osmonga qarab o'rmalab bulutlarga yetib borgach, bir kun yog'in-sochin bilan o'zimizga qaytadi-ku. Shularni o'ylab yotib, ko'zim ilinibdi va tush ko'ribman. Tushimda qor emas zahar yog'ayotgan emish. Nafas olay desam, dimog'im badbo'y hiddan achishar edi. Uyg'onib

Darvoqe, yaqinda Zulfizarning ustozlari ajoyib bir xushxabarni aytib qoldi: bu sinf o'quvchilari aprel oyida «Tong yulduzi» gazetasiga yoppasiga obuna bo'lishibdi.

Nargiza ABDULLAYEVA.

## USTOZ DEGANI...

Ustoz va shogirdlik buyuk baxt. Buning zamirida ilmu hunarga intilish yoki o'zida borini shogirdlariga qoldirishgina emas, balki ikki insonning mehr-muhabbat, hurmat-ehtirom, izzat-ikrom kabi hislatlarga limmo-lim munosabatlari tushuniladi. Bu tuyg'uni haqiqiy ustoz va shogird bo'lgan insonlarga his qilishlari mumkin. Zero, bu oliy ne'mat hammaga ham nasib qilavermaydi. Yuzlab shogirdlarni tarbiya qilgan, o'z yo'llarini topishlari, kasb-hunar tanlashlarida to'g'ri yo'l ko'rsata olgan, yoshlar bilan hamdard, hamnafas, ular diliga hamisha yo'l topa olgan Mirzohid aka Mirkarimov mana 40 yildan beri Chilonzor tumanidagi Shotursun G'ulomov nomli 114- o'rta maktabda matematika fanidan saboq berib keladilar. Ustozga katta-yu kichik havas va ishonch bilan qaraydi. Mirzohid aka faqat dars berish bilan cheklanib qolmay, o'quvchilarning fikrlash doiralarini kengaytirish borasida ham tinmay

izlanadilar. Nafaqat maktabda, balki tuman, mahallada ham obro'-e'tiborga egadirlar. 51 yoshni qarshilagan otajonimni ham, opalarimni ham Mirzohid aka o'qitgan ekanlar...

Taajjub, ko'pincha biz yengilning ostidan, og'irning ustidan qabilida ish tutib, tayinli bir joyda qo'nim topmaganlar haqida eshitib qolamiz. Ayniqsa, bu biz yoshlarga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqimizda «Daraxt bir joyda ko'karadi» degan hikmat bor. Bu hikmatning nechog'lik to'g'ri ekanligiga Mirzohid aka timsolida yana bir karra iqrora bo'ldim. Ko'pchilik bilan til topishib, atrofdagilar ko'nglini olib, o'z ishinig ustasi bo'lish ham matonat ekan. Men ustozdagi bu matonatga faqat hayrat va havas bilan qarayman. Kelajakda ulardek rostgo'y, talabchan va albatta samimiy inson bo'lishga harakat qilaman.

Dildora XOLMUHAMEDOVA, Toshkentdagi 114 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.

## TUG'ILGAN KUN...

Men 9-sinfda o'qiyman. Bu yil bitiruvchi sinf bo'lganligimiz uchun tug'ilgan kunlarni nishonlaydigan bo'ldik. Sinfidoshimiz Zebo tug'ilgan kunida biz avvaliga pul yig'adigan, keyin esa sovg'alarni o'zimiz alohida olib boradigan bo'ldik. Men bozordan yumshoq o'yinchoq va guldasta sotib oldim va Zebolarnikiga yo'l oldim. Borsam, hamma yig'ilib bo'lgan ekan. Mazza qilib o'tirdik. Tug'ilgan kun so'ngida sovg'alarni ochish boshlandi. Zebo bir-biridan go'zal sovg'alarni ocharkan, ko'zlarida quvonch porlardi. Navbat kichkinagina bejirim qilib o'ralgan sovg'aga kelganida hamma jim bo'lib qoldi. Zebo asta-sekinlik bilan sovg'ani ocha boshladi. Ichida chiroyli idishchada atir bor ekan. Uning yonidan kichkinagina xatcha ham chiqdi. Zebo xatni ovoz chiqarib o'qidi:

«Zebo tug'ilgan kuning muborak bo'lsin, shu kichkinagina sovg'am senga olam-olam quvonch

bag'ishlasa, xursand bo'lardim. Sinfidoshing Akrom». Shu payt hamma Akromga qaradi. Akrom qip-qizarib ketgan edi. Zebo bir qo'lidagi atirga, bir Akromga qaradi. B i r d a n sinfidoshimiz Sanjar: - A k r o m , shuni ham sovg'a deb yuribsanmi, biz buni tilla taqinchoqmi d e b o'ylabmiz,-deb qoldi. Uning bu gapiga hamma kulib yubordi. Akrom nima qilishini bilmay talmovsirab qoldi va tez-tez yurib ko'chaga chiqib ketdi. Uning orqasidan men ham chiqdim, lekin Akrom allaqachon ketib bo'lgan edi. Biz Sanjarning qo'pol hazili uchun Akromdan kechirim so'radik, ammo u bizni chin dildan kechirdimikan?

Aziz VAHOBOV, Toshkent viloyati, 9-sinf o'quvchisi.

Mening ismim Lola. 8-sinfda o'qiyman. Maqtanmoqchi emasman lekin sinf bo'yicha a'lochiman. Hamma fanni sevib o'qiyman. Birovlar menga

ahilmiz. Hammaniki bo'lgani kabi mening ham dugonam bor edi. Edi, deyishimning

## DUGONAMNI RAJITIB QO'YDIM...

sababi bor... Keling, yaxshisi hamma gapni bir boshdan boshlay... Sinfimizda Anketa yoki Esdalik daftarlar tutish odat bo'lib qoldi. Ba'zi o'quvchilar darslarni ham yig'ishtirib qo'yib, Anketa daftarini to'ldirishga o'tib ketishdi. Hatto bu daftarlar o'qituvchilarning qo'llariga tushib qolgan kun ham bo'ldi. Ularning tanbehlariga qaramay, qizlar yana yangisini tutishardi. Navbat menga kelganida dugonam Saida «Sen ham to'ldir, o'rtoq, faqat savollarga to'g'ri javob bergin», dedi. Daftarini olib uyga keldim. Darslarimni tayyorlab bo'lgach, uni qo'limga oldim va...savollarni o'qib, hayron qoldim. Chindan ham shu savollarni dugonamning

o'zi yozganiga sira ham ishongim kelmasdi.

«Sizga qaysi o'qituvchi yoqadi, qaysinisi yoqmaydi?»

Bu daftardagi eng tuzukroq savol edi. Yana sevgi haqida ham savollar bor edi. Men hali sevgiga erta

d e b o'ylayman. L e k i n dugonamning yuqoridagi savollari menga hecham yoqmadi. Xullas, daftardagi savollarga javob yozmadim. Ertasi kuni daftarni dugonamga qaytarar ekanman, bunday savollarga javob yoza olmasligimni aytdim. Lekin Saida meni noto'g'ri tushundi va mendan xafa bo'lib qoldi. Hozir meni ko'rsa, teskari qarab ketadi. Mening aybim uning anketadagi savollariga javob bera olmasligimmikin? Umuman, to'g'ri ish qildimmi, yo'qmi, bilmadim. Aziz dugonajonlar, menga aytinglarchi, Anketa savollari qanaqa mazmunda bo'lishi kerak?

Lola O'TAGANOVA, Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, 8-sinf o'quvchisi.

## Qulog'ingga gapim bor




b u fan yoqadi, menga unisi yoqadi, deyishadi. Ammo fanlarni, buning ustiga o'qituvchilarni ajratish odobdan emas deb o'ylayman. Axir hamma o'qituvchilar bizga bilim berish uchun, kelajakda yo'limizni to'g'ri tanlashimiz uchun qayg'urishadi-ku. Xullas, sinfimizda 12 nafar qiz, 12 nafar o'g'il bola bor. Hammamiz

# Bo'sha o'tirmoq, bosa qotir!

**Eniga:**

1. Mevali daraxtning bir yilda ikkinchi bor bergan mevasi.5. Ekin maydoni qirg'oqlarida qoldirilgan bo'sh yer.6. Hamma tomonlari teng, lekin burchaklari to'g'ri bo'lmagan parallelogram.8. Sport o'yinlari maydoni.10. Kimyoviy unsur.12. «...cho'ksa joy topiladi». (maqol) 13. Bir tildan boshqa tilga ag'darilgan matn.14. Uzoq o'tmishdan qolgan moddiy yodgorlik.17. Muayyan bir sohaga oid asarlar, kitoblar.21. Predmetning ish harakatini yoki holatini




**Bo'yiga:**

1. AQSH avtomobil sanoatining markazi hisoblanuvchi shahar.2. Elektr quvvatining o'lchov birligi.3. Ko'ngilga yetgan ozor, alam.4. Ishlab chiqarish yoki savdo bilan shug'ullanuvchi tuzilma.5. «Karbonoma» dostoni muallifi, o'zbek lirik shoirasi.7. Urub chalinadigan musiqa asbobi.8. Chidam, bardosh. 9. G'alla ekini.11. Kasalni davolash uchun ishlatiladigan shifobaxsh modda.13. Ikki narsa o'rtasidagi noo'xshashlik, farq 15. Chet davlatdan

bildiruvchi so'z turkumi 23. Bahona, ro'kach.24. ...Alisher Navoiy. 26. Oylik, ish haqi.27. Farzand.28. Ozg'in, kamgo'sht.29. Sahro bilan o'ralgan obod,suvli o'lka.30. Charxning yigirilayotgan ip o'ralib boradigan qismi.32. Pichoq solib qo'yiladigan g'ilof.33. Ekin ekiladigan keng maydon.36. Davolash usullari va vositalari.38. Yirik yirtqich baliq.40. Chili shimolidagi cho'l.44. Yonib kuyishdan hosil bo'lgan changsimon mineral qoldiq.45. Ekvatorning ikki tomonidagi cho'l- biyobonlar.46. Milliy bahoriy taom.49. Tok tanasining ildizga yaqin qari qismi.50. Tog'da o'sadigan xushmanzara,dorivor o'simlik.51. Fikri, tushunchasi, dunyoqarashi bir xil bo'lgan.

keltirilgan mol uchun olinadigan haq.16. Orom, hordiq. 18. Suyakli qalqonga ega jonivor.19. Titilib ketgan eski paxta.20. Shvetsiyada pul birligi.22. Namangan viloyatidagi tuman. 25. Zaharli katta o'rgimchak. 31. Biror kimsaga nisbatan dilda saqlangan xafalik, gina.32. Xizmatkor.34. Sholi oqlaydigan qurilma.35. Yomg'irdan so'ng osmonda rang-barang tusda ko'rinadigan yo'l.37. Sport turi.39. Barmoqqa taqiladigan bezak buyumi. 41. Salomga beriladigan javob.42. To'satdan kutilmaganda.43.Tok ekilgan yer. 47. Biriktirishi uchun qo'llaniladigan yopishqoq modda.48. Yirtqich o'rmon hayvoni.

Tuzuvchi: Akromjon XO'JAMOV.



**Eniga:**

1. Hamzaning ilk to'plamlaridan biri. 3. G'ofur G'ulom asari. 4. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravishlarning ma'no jihatidan bo'linishi. 5. «Kecha va kunduz» asarining muallifi. 7. O'zbek milliy libosi. 9. Zahiriddin Muhammad Boburning farzandi. 10. Abdurauf Fitratning ilk hikoyalaridan biri. 12. Badiiy asar turi. 13. O'zbek xalq shoiri. 15. Qadimiy qo'lyozmalarda yovvoyi qabilaning nomlanishi.

**Bo'yiga:**

1. O'zbek xalq dostonlaridan biri. 2. Dunyoga mashhur bo'lgan raqamlardan biri. 4. «Tarjimon»so'zining sinonimi. 6. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari personajlaridan biri. 7. O'zbek xalq mumtoz kuylaridan biri. 8. Komil Yashin pyesasi. 10. Mashhur o'zbek xalq yozuvchisi. 11. O'zbek san'atiga katta hissa qo'shgan arman ayolining ismi. 13. O'zbek xalq hofizi. 14. Abdulla Qahhor hikoyalaridan biri.

Tuzuvchi: Feruza ISROILOVA.

Vengercha boshqotirmada gazeta nashrlarining nomlari yashiringan  
Tuzuvchi: Sherbek Yodgorov.

T	O	S	A	I	Ch	T	U	R	O'	Z	B
H	N	G	N	A	K	A	D	K	N	O	E
U	Q	Y	U	M	A	R	H	I	O	T	K
Q	U	D	L	I	R	R	U	S	V	S	I
I	Z	U	F	Y	A	N	O	T	O	U	G
I	Sh	R	I	D	T	G	U	I	Z	L	S
N	O	O	K	O	Z	I	L	S	E	Ch	A
Ch	T	B	O	L	O'	A	X	U	H	O	D
O'	U	F	N	I	S	N	D	G	R	A	R
Z	K	I	O	X	Q	Y	I	R	A	L	A
B	E	S	T	A	L	O	N	A	X	A	B

## LOGOGRIF

Bu xildagi topishmoq berilgan so'zdan ma'lum bir harf yoki bo'g'inni tushirib qoldirish yo'li bilan topiladi. Masalan «Oltoy» so'zidan «t» harfi tushirib qoldirilsa, «Oloy»kelib chiqadi. Shuningdek, «Mayna» so'zidan oxirgi bo'g'in tushirib qoldirilsa,»may» so'zi hosil bo'ladi. Logogriflar ham ta'riflanib yoki she'riy yo'lda ifodalanishi mumkin. Bunda oldin birinchi jumboq so'z, so'ng harfi yoki bo'g'ini tushirib qoldirilgandan keyin hosil bo'ladigan so'z bayon etiladi. Quyidagi logogriflarga javob toping.

Abxaziya maskani, Shifobaxsh kurort shahar. Bosh harfidan voz kechsang, Hindistonda joylashar.

xxx  
Jonivorlar ulkani, Okeandir makoni. Bir harfi tushib qolsa, Bo'ladi uy hayvoni.  
xxx  
Po'lat izdan yuradi, Yo'lovchilar eltadi. So'nggi harfin unutsang Masofalar o'lchovi.  
xxx  
Dala qirga ekilar, Qanotli do'st xush ko'rar. Bosh harfini unutsang? Undan suvlar sharqirar. Javobining sen so'ngisin Bir harfini o'chirgin, Bo'lur uchqur hashorat, Undan bo'lgin ehtiyot.  
xxx  
Ta'riflandi uch jumboq, O'ylab topgin ey o'rtoq.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV.

### KO'KLAM KELDI ELIMGA

Qushlar sayray boshladi,  
Dillar yayray boshladi.  
Olam yashnay boshladi,  
Bahor keldi elimga.

Qirlar to'ldi lolaga,  
Va quvnoq, sho'x bolaga.  
Fayz kirdi keng dalaga,  
Bahor keldi elimga.

Keng dalaga boramiz,  
Gul-lolalar teramiz.  
Onamizga beramiz,  
Bahor keldi elimga.

Quyosh kulib boqadi,  
Nuri dilga yoqadi.  
Navro'z eshik qoqadi,  
Bahor keldi elimga.

Ko'rkam ko'klamdir har joy,  
Sharqirab oqmoqda soy.  
Borliq go'zallikka boy,  
Bahor keldi elimga.

*Manzura*  
**ABDUJABBOROVA,**  
Andijon viloyati,  
Izboskan tumanidagi  
15 - o'rta maktabning  
9 - sinf o'quvchisi.

### BIZNI SOG'INTIRGAN FASL

Mana, barchamizni sog'intirgan  
fasl - bahor ham keldi. So'nggi qor  
biz bilan yanagi qishgacha  
xayrlashayotgandek bo'ralab-  
bo'ralab yog'di. Keksalarimizning  
aytishlaricha, bu hali so'nggi qor  
emas, hali «hut-hut», «yut-  
yut»lar bo'larmish. Yog'ingarchilik  
qancha ko'p bo'lsa, rizq-ro'zimiz shuncha mo'l  
bo'ladi.

O'zingizdan qolar gap yo'q,  
kunlar biroz isishi bilan chor-  
atrofni tozalash, ko'kalamzorlashtirish  
ishlari jonlanib ketadi. Hamma joyda  
bo'lgani kabi biz - Toshkent  
pedagogika kolleji talabalari ham  
ma'naviyat-ma'rifat bosh bo'limi

mudiri Elmira opa Rashidova  
boshchiligida bahorgi  
yumushlarni qizitib yubordik.  
O'tgan yili ekan olma  
daraxtlarimiz ancha bo'y cho'zib  
qoldi. Bu yil esa bog'imizni  
yanada kengaytirib, o'rik, olcha  
ko'chatlari o'tkazdik. Ko'chatlarning  
tagini yumshatib, ariqlarni tozaladik.

Ona tabiatni qanchalar  
e'zozlasak, mehr bersak, u ham  
bizdan o'z sahovatini ayamaydi.  
Shundagina barchamiz intiq  
kutgan bahor ham bizga quchoq  
ochadi.

*Samiha*  
**MIRZAMUHAMEDOVA,**  
Toshkent pedagogika kolleji  
talabasi.



Kuz kunlarining birida ikki  
o'rtoq - Nabi bilan G'ani bog'da  
aylanib yurishardi. Shu payt  
G'anining ko'zi kattakon  
yong'oq daraxtining  
tagida to'kilib yotgan  
yong'oqlarga tushdi. Yugurib  
borib, chaqqonlik bilan ularni  
terib oldi.

- Yong'og'ingdan menga ham  
ber, - so'radi Nabi do'stiga qo'l  
uzatib.

- Men topdinimi, demak  
meniki bo'ladi, - dedi G'ani  
yong'oqlarni cho'ntaklariga  
joylarkan...

Shu payt ularning ko'zi  
kattakon ikki xaltada olma  
ko'tarib ketayotgan otaxonga  
tushdi. Yugurib borib,  
qo'llaridan xaltalarni olib,  
uylarigacha kuzatib qo'yishdi.

- Rahmat bolalarim, og'irimni  
yengil qildinglar, - dedi otaxon  
mamnuniyat bilan. - Mana bu

sizlarga, - deya ikkalasiga bittadan  
olma berdi.  
- Sizga ham rahmat bobojon, -



deyishdi bolalar baravariga va  
olmani yuvish uchun anhor  
bo'yiga oshiqishdi. Shu payt  
G'anining olmasi bexosdan suvga  
tushib ketdi. Bu holni ko'rgan Nabi:  
«Xafa bo'lma do'stim, mening olmam  
ikkimizga ham yetadi» dedi-da,  
kattakon olmani teng ikkiga  
bo'lib, bir bo'lagini do'stiga  
uzatdi. G'ani esa olmani olishni  
ham, olmaslikni ham bilolmay,  
biroz turib qoldi. So'ngra  
cho'ntaklaridan yong'oqlarini  
chiqarib, uyalinqirab Nabiga  
uzatdi. Uning o'z qilmishidan  
pushaymon bo'layotganini sezgan  
do'sti yelkasiga qo'l tashlab,  
samimiy kulib qo'ydi.

*Dilshod G'OFUROV,*  
Shayxontohur tumanidagi  
169 - maktabning  
6 - «A» sinf o'quvchisi.

### BOBOJONIM BO'LSALAR



Ko'rmaganman men bobomni,  
Ular qanday edilar?  
Ko'rganlarida bizni,  
«Asal bolam» derdilar.

Soqollari oppoqmidi,  
Shirinmidi so'zlari?  
Aminmanki, ularning,  
Chaqqab turgan ko'zlari.

Ertak aytib berarmidi,  
Erkalab, yuzim silab.  
Nasihatlar qilarmidi,  
Bizlarga kamol tilab.

Devordagi suratiga,  
Ma'yus boqib qolaman.  
Yashasalar bo'lmasmidi,  
Deya o'yga tolaman.

*Sherzodbek ORTIQOV,*  
Glier nomidagi Respublika  
musiqa maktab  
internatining  
6 - «A» sinf o'quvchisi.



### OPPOQ

Oq kuchukcha boqqan edim,  
Oppoq, katta it bo'ldi.  
«Oq kuchukcha» deb chaqirsam,  
«Oppoq» degan it bo'ldi.

Ko'zi tunda yaraqlaydi,  
Parcha yulduz tushganday.  
Paxtazorda topolmaysiz,  
Katta ko'sak pishganday.

*Zumrad TO'LABOYEVA,*  
Toshkent viloyati,  
O'rta Chirchiq tumanidagi  
14 - o'rta maktabning  
6 - sinf o'quvchisi.



### BUVIJONIM

Mehribon buvijonim,  
Sog'-u salomat bo'ling.  
Bardam - baquvvat bo'lib,  
To'qson, yuz yoshga to'ling.

Buvijonim buvijon,  
Sizni sog'indim biram.  
Erkalatib siz meni,  
Boshimni silang har dam.

*Gulyora SHERBO'TA qizi,*  
Sirg'ali tumanidagi  
3 - o'rta maktabning  
3 - «A» sinf o'quvchisi.



### OTAJONIM

Bunyodkorlik kasbingiz,  
Bag'rikenglik aslingiz.  
Baxtinga bo'ling omon,  
Tilarman sog'lik har on.

Mehnatni ulug'laysiz,  
Zafarlarga yo'llaysiz.  
Siz-la baxtli har onim,  
Mehribon otajonim.

### ONA TILIM

Ona tilim bor bo'lgin,  
Mazmunga makon bo'lgin.  
Sen borsan qalbdagi g'urur,  
Qalbimizga shon bo'lgin.

Sen haqda kuylar navo,  
Sen haqda so'ylar sabo.  
Sen mening chirog'imsan,  
Bir umr hamrohimsan.

*Farangis*  
**NASRIDINOVA,**  
Xorazm viloyati,  
Urganch shahridagi  
14 - maktabning  
4 - sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining  
gazetasi

Muassislar:  
**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
DAVLAT MATBUOT  
QO'MITASI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR  
IJTIMOIY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nuxxada ofset usulida  
bosildi.

Korxonalar manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № T-267  
Gazetani  
Muhabbat  
MAXSUDOVA  
sahifaladi.  
Naybatchi:  
Tuhfaniso ORTIQOVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08